

IMOM AL-BUXORIY HAZRATLARI MADANIY MEROSI

Ilmiy rahbar: X. U. Samatov

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

S. O'rolov

AKTKT fakulteti 23.01-guruh talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Imom al-Buxoriy hazratlarining hayoti, allomaning yozgan xadislari, ta'lim olgan madrasalari, ibratli hayot yo'llari, islom dini rivojiga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Murshid, komil inson, yutuk alloma, chuqur ilm sohibi, mutaffakir, muhaddis.

Zaminimiz azaldan buyuk allomalar, mutafakkirlar, o'z zamonasidan o'zib ketgan daholar yurti bo'lib kelgan. Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Abu Bakr Qaffol Shoshiy, Abu Mansur Moturidiy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Abulmuin Nasafiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiy... nomlarining o'zi bir kitob bo'ladi. Biri kalom ilmi ustoz, biri falak toqiga narvon qo'ygan zabardast olim, boshqasi amaliy tibbiyot otasi, biri kalom ilmi durdonasi, yana biri muhaddislar sultoni.

Bizning yurtimizda yetishib chiqqan bu kabi buyuk allomalar ko'chilikni tashkil etadi. Ayniqsa Islom olamida o'ziga xos alohida hurmat va e'tiborga sazovor, musulmon yurtlari ichida bizga faxr bag'ishlovchi buyuk ajdodlarimiz shubhasiz islom ummatlari dilidan chuqur joy egallagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Va bu ajdodlarimiz davomchilari bo'lmish olim u ulamolar hozirgi kunda ham ilm nurlarini taratib turibdi.¹ Shulardan biri Imom al-Buxoriydir.

U Islom diniga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalarimizning benazir merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish, muqaddas yurtimiz zamini azal-azaldan ulug'allomalar, aziz avliyolar vatani bo'lib kelganini yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib qilish, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-

¹ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Imom_al-Buxoriy_saboqlari;

avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu g‘oyalar ruhida tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini kuchaytirish kabi fazilatlarni shakllantirishda beqiyos xissalarini qo‘shgan.

Uning to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug‘iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy bo‘lib, u hijriy hisobda 194 yil shavvol oyining 13-kuni (810 yil 20-iyul)da Buxoro shahrida tavallud topgan. Ibn Xallikan o‘zining “Vafayotul a‘yon” kitobida ta‘kidlashicha, Imom Buxoriy ozg‘in, uzun ham va qisqa ham bo‘lmaganlar (ya‘ni o‘rta bo‘yli bo‘lganlar). Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy yoshlik vaqtlarida ko‘zlari ojiz bo‘lib qoladi. Bir kuni onalari tushlarida Ibrohim alayhissalomni ko‘radilar. Ibrohim alayhissalom onalariga: “Sening ko‘p duo qilganing va yig‘ilaringdan keyin Alloh taolo bolangning ko‘zini qaytarib berdi”, – deydilar. Tong otgandan keyin, qarasalar Alloh bolalarining ko‘z nurini qaytarib bergan ekan..

Otasi Ismoil o‘z davrining yetuk muhaddislaridan, Molik ibn Anasning shogirdi va yaqinlaridan biri bo‘lib, tijorat ishlari bilan shug‘ullangan. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi volidasi zimmasiga tushgan. U 5—6 yoshidan islomiy ilmlarni, Muhammad (sav)ning hadislarini o‘rganishga va yodlashga kirishadi.

Buxoriy 16 yoshga yetguncha, o‘z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, yozib olib, xalifalikning turli viloyatlari tomon yo‘l oladi.² 825-yil Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etadi. Onasi va akasini Buxoroga qaytarib, o‘zi Makkada qoladi. Bu yerda faoliyat ko‘rsatayotgan olimlarning ilmiy yig‘inida qatnashadi. 827-yil Madinaga boradi. Madinadagi mashhur ulamolardan Ibrohim ibn Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza va boshqalar bilan muloqotda bo‘lib, ulardan hadislar bo‘yicha saboq oladi. Bu vaqtda Rasulullohning sahobalari, sahobalarning izdoshlari turli mamlakatga tarqab ketgan edilar.³ Shunday sharoitda Muhammadning hadislarini to‘plash turli shahar va mamlakatlarga borishni taqozo qilar edi.

Rivoyatlarga ko‘ra, u yuz minglab hadislarni to‘plab, ulardan 300 mingtasini yoddan bilgan. U hayotining 42 yilini izlarishlar bilan o‘tkazadi. Kitobi ustida

² https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Imom_al-Buxoriy_saboqlari;

³ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Imom_al-Buxoriy_saboqlari;



ishlashni u Basrada boshlaydi va uni ko‘p yillar davomida yozadi. Uning so‘zlariga ko‘ra, kitobga 1080 ta muhaddisning hadisleri kiritilgan. Buxoriy 20 dan ortiq kitob tasnif etgan. Ulardan ayrimlari bizgacha yetib kelgan. Buxoriyning «Al-Jomi’ as-sahih» («Ishonchli to‘plam») deb nomlangan 4 jild (juz) dan iborat hadislar to‘plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadis to‘plamlari orasida eng ishonarli va mukammalidir. Asar bir qancha xorijiy tillarga tarjima qilingan. Shu jumladan o‘zbek tiliga ham tarjima qilinib, 1991-1996 -yillarda 4 jildda nashr etildi.

Buxoriy jami 600 mingga yaqin hadis to‘plagan bo‘lib, shundan 100 ming «sahih» va 200 ming «g‘ayri sahih» hadisni yoddan bilgan. Buxoriy o‘zining noyob qobiliyati, iqtidori, quvvai hofizasining o‘ta kuchliligi bilan ilm ahllarini lol qoldirgan. Hadis ilmiga o‘ta fidoyilik, aql-zakovatini baxshida etish Buxoriyga shon-sharaf keltirdi, uni islom dunyosining eng buyuk allomalaridan biri sifatida tanitdi.

Buxoriy yaratgan «Al-Adab al-mufrad» («Adab durdonalari») asari katta tarbiyaviy ahamiyatga molik benazir to‘plamdir. 1322 hadis va xabar jamlangan bu asar Turkiya va Misrda bir necha marta chop etilgan. Uning o‘zbekcha tarjimasi 1990 yili Toshkentda nashr qilingan. Roviylarning kunyalariga bag‘ishlangan «Kitob al-kuna» («Kunyalar haqida kitob») 1940 yili Hindistonda chop etilgan. Buxoriyning «At-Ta’rix al-kabiyr» («Katta tarix») kitobi esa Turkiyada 9 jildda nashr qilingan. Asar qo‘lyozmasining ba’zi qismlari Haydarobod kutubxonasida saqlanadi. Shuningdek «At-ta’rix as-sag‘iyr» («Kichik tarix») ham hadis tarixiga oid qimmatli asar hisoblanadi. Bu asar Hindiston va Qohirada chop etilgan. Buxoriy yaratgan «Kitob al-favoid» («Foydali ashyolar haqida kitob»), «Al-Jomi’ al-kabiyr» («Katta tayanch»), «Xalq af’ol al-ibod», («Alloh bandalari ishlarining tabiati»), «Al-Musnad al-kabiyr» («Katta tayanch»), «At-tafsir al-kabiyr» («Katta tafsir»), «Kitob al-hiba» («Xayr-ehson haqida kitob») va boshqa asarlarning ba’zilar bizgacha yetib kelmagan, ba’zilar jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma’lumotlar bor. Buxoriyning boshqa asarlari orasida «Tafsir al-Qur’on» («Qur’on tafsiri») kitobini ham alohida ta’kidlash kerak. Buxoriy asarlari musulmon dunyosining barcha madrasa va dorilfununlarida payg‘ambar (s.a.v) sunnatlari bo‘yicha asosiy darslik, qo‘llanma hisoblanadi. Jamoat arboblari, olimu ulamolar va din peshvolari Buxoriy asarlariga tayanib ish tutadilar.

Aynan Imom al-Buxoriy tufayli Movarounnahr hududida IX—XII asrlarda ko‘plab hadisshunoslik maktablari shakllandi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Hozirgi kunda olimning asarlari dunyoning o‘nlab tillariga tarjima qilingan va islom dunyosida uning ijodidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda foydalanib kelinadi. Xorijiy



yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ‘ib etishga kirishadi.⁴

Imom al-Buxoriy milodiy 870 yili Samarqand yaqinidagi Xartankda vafot etdi va o‘zida islom ilmi an‘analarini boyitib kelayotgan meros qoldirdi. Hadislarning saqlanishi va ishonchliligini aniqlashdagi, islom ilmiga ta‘siri uning nomini avlodlar o‘rtasida eslab qolishini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo‘yicha 1225-yilligini nishonlash to‘g‘risida“gi qarori (1997-yil 29-aprel) asosida Buxoriyning ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. 1998-yil 23-oktabrda Samarqandda yubiley to‘y-tantanalari bo‘lib o‘tdi.⁵ Alloma abadiy qo‘nim topgan Chelak tumanidagi Hartang qishlog‘ida ulkan yodgorlik majmui ochildi (qarang Buxoriy yodgorlik majmui). Buxoriyning boy ma‘naviy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Imom al-Buxoriy xalqaro jamg‘armasi tuzildi (1998-yil 4-noyabr; raisi Zohidillo Munavvarov). Jamg‘armaning asosiy vazifasi Qur‘oni karim va Buxoriyning „al-Jome as-sahih“i tarjimalarining akademik nashrlarini tayyorlash, buyuk islomshunoslar ilmiy merosini tadqiq etish, diniy-falsafiy mavzularda ilmiy anjumanlar o‘tkazish va shular yordamida yosh avlodni milliy an‘analarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. 2000-yildan boshlab mazkur jamg‘arma o‘zining ma‘naviy-ma‘rifiy, ilmiy-adabiy „Imom al-Buxoriy saboqlari“ jurnalini nashr eta boshladi. Jurnal xalqimizni milliy-ma‘naviy merosimizdan bahramand etish, milliy, diniy qadriyatlarning sog‘lom idrok etilishiga yordam berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. O‘zbekistonda Buxoriyning xotirasi munosib tarzda abadiylashtirilgan. Toshkent Islom institutiga Buxoriy nomi berilgan. Buxoriyning hayoti va ijodiga bag‘ishlab bir necha tillarda kitob-albom, 2 qisimli film (1995), „Hadis ilmining sultoni“ 4 qisimli kinoqissa (1998) yaratilgan.⁶

2022-yil 15-avgustda O‘zbekiston Prezidenti tomonidan “Imom Buxoriy” ordenini ta‘sis etish to‘g‘risidagi qonun imzolandi. Qonunga muvofiq, orden ikki

⁴ Moziydan tarqalgan ziyo. Imom al-Buxoriy, T. 1998;

⁶ Moziydan tarqalgan ziyo. Imom al-Buxoriy, T. 1998;



darajadan iborat bo‘lib, “Oliy darajali Imom Buxoriy” ordeni hamda “Imom Buxoriy” ordeni ko‘rinishida bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Imom_al-Buxoriy_saboqlari;
2. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/tarix/qomusiy-olimlar-sarkardalar/imom-ismoil-al-buxoriy-810-870>;
3. <http://www.fikr-uz.narod.ru/b/4.html>;
4. Moziydan tarqalgan ziyo. Imom al-Buxoriy, T. 1998;
5. Uvatov U. Imom al-Buxoriy. T. 1998;
6. Imom al-Buxoriy – muhaddislar sultoni T. 1998.
7. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
8. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
9. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
10. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
11. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
12. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
13. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.
14. <https://uz.wikipedia.org/>

